

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINI XOR-DRIJORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH TIZIMINING MAVJUD XOLATI.

Kuchkarbayeva Feruzaxon Xayrullo qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Musiqa ta’limi yo’nalishi 2-bosqich talabasi
kuchkarbayevaferuza@gmail.com
Tel: +998911602405

Annotatsiya: Nihoyatda nozik musiqiy ifodalash xususiyatlariga ega bo‘lgan, o‘zining turli-tuman rango-rang tembri(tusi)ga boy bo‘lgan inson ovozi – murakkab musiqa asbobidir. Shuning uchun ham ko‘pincha inson ovozi “gapirib turuvchi musiqa asbobi” deb nomlanadi. Ushbu maqolada qo‘shiqchilik ovozlari va ularning tavsifi, bolalar ovozi xususiyatlari, erkak va ayol ovozlari tavsifi va ularning turlari hamda mutatsiya davri haqida ma’lumotga ega bo‘lishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: ovoz turlari va tavsifi, mutatsiya davri, soprano, alt, tenor, bas

Аннотация: Обладая чрезвычайно тонкими музыкальными выразительными свойствами, человеческий голос, богатый своим разнообразным Ранго-цветовым тембром(тоном), является сложным музыкальным инструментом. Вот почему человеческий голос часто называют” говорящим музыкальным инструментом". В этой статье вы можете узнать о певческих голосах и их описании, характеристиках детских голосов, описании мужских и женских голосов и их типах, а также о периоде мутации.

Ключевые слова: типы и описание голоса, период мутации, сопрано, альт, тенор, бас.

Abstract: The human voice, which has extremely subtle musical expressive features, rich in its own varied rango-color timbre(tusi), is a complex musical instrument. Therefore, the human voice is often referred to as a” talking musical instrument". In this article, you can learn about singing voices and their description, characteristics of children's voices, description of male and female voices and their types, as well as the period of mutation.

Keywords: types and description of sound, mutation period, soprano, alto, tenor, bass

O‘zbekiston hududida XX asrning boshlarida teatr truppalari tuzilib, tomoshalar vaqtida spektakl mazmun-mohiyatidan kelib chiqib jo‘rlilikda ijro etiladigan qo‘shiq va ashulalar xor ijrochiligi asta-sekin o‘zbek xalqiga singib borayotganligidan dalolat bo‘lgan. Tinglovchilarda kuyga solingan va birgalikda kuylangan matnlar katta taassurot qoldirgan, yuraklarni larzaga solgan.

Qo‘shiqchilik ovozlari va ularning tavsifi: Nihoyatda nozik musiqiy ifodalash xususiyatlariga ega bo‘lgan, o‘zining turli-tuman rango-rang tembr(tusi)ga boy bo‘lgan inson ovozi – murakkab musiqa asbobidir. Shuning uchun ham ko‘pincha inson ovozi “gapirib turuvchi musiqa asbobi” deb nomlanadi.

Inson ovozi apparati asosan uch qismga bo‘linib, bular:

- nafas olish organlari;
- hiqqildoq;
- rezonatorlar bo‘lib, bir-biriga uzviy bog‘langandir.

Inson ovozi juft va toq hiqqildoq tog‘aylari pardalarining muskuli yordamida bir-biriga bog‘lanadi. Nafas ovoz pardalariga urilib, ularni tebratadi va tovush chiqaradi. Ovoz pardalari lotinchada – “lig vokale” deb nomlanib, ular aniqlanishining asosiy tamoyillari:

- xorda qo‘shiq ayta oladigan ovoz turi;
- xorga zarur musiqa qobiliyati (ya’ni, eshitish, usul ushlash va musiqiy xotira)ga ega bo‘lgan insonlar ovozi;
- ovoz sifatlari (tembr, diapazon) mujassam bo‘lishi darkor.

Xonanda ovozi o‘z navbatida jinsiy tuzilishga qarab – bolalar, ayollar va erkaklar ovozlari bo‘linadi.

Bolalar ovozi xususiyatlari. “... men bolalarning ovozi ilk bahorda unib chiqqan juda nozik, nafis va go‘zal maysaga o‘xshataman. Agar bu maysa o‘z vaqtida suv, havo yoki quyosh nuri bilan ta’minlanmasa, buning natijasi nimaga olib kelishi aniq holdir. Bola ovozi ham xuddi shunday bir nozik a’zoki, unga juda katta

ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak” deb uqtiradi ustoz san’atkorimiz Shermat Yormatov. Bolalarning ovoz boylamlari kattalar ovoz boylamlaridan ancha farq qiladi. Ularning juda nozikligi, kichikligi tufayli bolalar ovozi baland pardalarda jarangdor yangraydi. Bolalar ovozi kuchi past bo‘lsada, yuqori registlarda yengil va jarangdordir. Xormeysterlardan bolalar badiiy jamoasini kuylata olish, rivojlantirish katta mahorat talab etadi. Bolalar ovozi o‘z navbatida – soprano yoki diskant (o‘g‘il bolalardagi eng baland ovoz) va alt ovozigacha bo‘linadi.

– Soprano yoki diskant, deb bolalarning yuqori ovozigacha aytiladi. Yengil, o‘zgaruvchan yumshoq yangraydigan ovoz bo‘lganligi sabab, qo‘shiqalarda asosiy kuy yo‘lini ta’sirchan ijro etadi. Uning diapazoni birinchi oktava “do”dan ikkinchi oktava “sola”gacha bo‘lgan oraliqni egallaydi;

– Alt ovozi esa bolalar ovozining pastki ovozi bo‘lib, bir muncha yo‘g‘onligi va kuchli tembrga yaqinroqligi bilan ajralib turadi. Diapazoni – kichik oktava “sol”dan ikkinchi oktava “re”gacha bo‘ladi.

Mutatsiya davri. Xormeyster bolalarning ovozini doimo nazorat qilib borishi kerak. Bola yoshi ulg‘aygan sari turli jinsiy o‘zgarishlar, ya’ni:

- ruhiy;
- fiziologik o‘zgarishlarga uchraydi.

O‘g‘il bolalarda ko‘proq sezilib turadigan “mutatsiya” (rasta bo‘lish, jinsiy o‘zgarish) davrida ovoz diapazoni chegarasi keskin qisqaradi. Ovozi bo‘g‘ilib, intanatsiya tushunarsiz, ovozi tez-tez charchaydigan bo‘lib, ko‘pincha bu davr 12–14 yoshlarda o‘tib kechadi. 17–18 yoshga yetib, o‘spirin ovozi o‘z yangi tembri, yangi diapazoni, ya’ni katta kishilar ovozigacha o‘zgarib, 20–22 yoshlarda to‘liq shakllanadi.

Qiz bolalarda ham mana shu yoshda o‘zgarishlar bo‘lib, o‘g‘il bolalarga nisbatan ancha yengil, ovozi mutatsiya davrida takomillashib, ovoz diapazoni kengayib boradi.

Ayollar ovozining tavsifi va ularning turlari. Ayollar ovozi ham o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi: Soprano va alt ovozlari. Soprano – italyancha so‘z bo‘lib, “yuqori” degan ma’noni anglatadi. Bu ovoz o‘z navbatida quyidagi ichki bo‘linmalarga ega: koloratura, lirik koloratura, lirik soprano, lirik-dramatik va dramatik soprano, lirik va

dramatik metsso-soprano kabilardir.

– Alt – ayollar pastki ovozi bo‘lib, messo-soprano va kontralto, deb yanada aniqroq ta’riflanishi mumkin.

Erkaklar ovozining tavsifi va ularning turlari. Erkaklar ovozi asosan quyidagilarga ajratiladi:

– Tenor – lotinchada “teneo” – “ushlayman” degan ma’noni anglatadi. Erkaklarning yuqori ovozi bo‘lib, umumiy diapazoni ikki oktavani tashkil etadi – “do” kichik oktavadan “do” ikkinchi oktavagacha. Tenor ovozining asosiy turlariga – altino-tenor, lirik tenor, lirik-dramatik va dramatik tenor kiradi.

– Bas ovozlari guruhiga – bariton, bas va oktavachi baslar, erkaklarning past ovozlari kiradi. K.D.Uminskiy qo‘shiqchilarida va ayniqsa xor ijrosidagi qo‘shiqda umuman bir tomondan insonni jonlantiruvchi va harakatga soluvchi sifatlar bo‘lsa, boshqa tomondan mehnatni tashkil qilishga birdamlik bilan birorta maqsadga erishishga undovchi hislatlar bor – degan. Shu sababdan qishloq ahli mehnat jarayonida ish kuchini birlashtirish uchun xor qo‘shiqchilaridan keng ko‘lamda foydalanadilar.¹

Xor alohida bir qancha tuyg‘uni yagona kuchli tuyg‘uga birlashtiradi va bir qancha qalbni yagona teran his qiluvchi qalbgacha aylantiradi, ko‘pchilikning kuchi bilan bilim olish mashaqqatlari ustidan g‘alaba qilinishi kerak bo‘lgan maktabda bu juda muhim jarayondir. Hozirgi tarbiyada Mustaqil O‘zbekistonimizning kelajagi tarbiyasida ham xor juda katta rol o‘ynaydi. Bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ulari va ko‘pchilik bo‘lib birlashish kabi xislatlarni tarbiyalashda xor ijrochiligi juda katta ahamiyatga ega. Bolalar xor bo‘lib kuylaganda qo‘shiq bir ovozli ijroga nisbatan ta’sirchan va ifodalibroq ekanligini anglaydilar. Bunday ijrochilik xosiyatini anglash bolalarga katta ta’sir ko‘rsatadi. Respublikamizda estetik tarbiyani takomillashtirishda va buning uchun kerakli sharoitlarni yaratishga jiddiy e’tibor berishmoqda. Musiqa madaniyati yosh avlodning estetik va axloqiy tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish asosiy maqsad qilib qo‘yildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mansurova G. Xroshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. T.: 2008

¹ Mansurova G. Xroshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. T.: 2008 4-13 b.